

OMMAVIY OFERTA

«Visa Kapitalbank Alias dan yutuqli televizorlar o'yini» **Promo-aksiyasida ishtrok etish uchun**
(keyingi o'rinlarda - «Oferta»)

Toshkent sh.

«07» iyun 2024 y.

Ushbu «Visa Kapitalbank Alias dan yutuqli televizorlar o'yini» Promo-aksiyasi (keyingi o'rinlarda - «Promo-aksiya»)da ishtrok etish uchun Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda - «Oferta») Promo-aksiyani o'tkazishning tartibi, shartlari, muddati hamda joyini belgilaydi. Promo-aksiya "Visa" transmilliy kompaniyasi bilan hamkorlikda e'lon qilingan hamda o'tkaziladigan va "Visa Kapitalbank Aliasdan yutuqli televizorlar o'yini" reklama kampaniyasiga bag'ishlangan, **ATB «Kapitalbank» (keyingi o'rinlarda – «Tashkilotchi»)**, nomidan Nizom asosida ish yurituvchi, ATB «Kapitalbank» boshqaruvi raisi Mayevskiy Kirill Leonidovich, **jinsidan qat'y nazar hamda 18 yoshdan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslar (Visa Kapitalbank karta egalari)ning cheklanmagan miqdoridagi guruhi (keyingi o'rinlarda – «Ishtrokchilar»)**, **O'zbekiston Respublikasi fuqarolari**, Promo-aksiya doirasida o'tkaziladigan yutuqli o'yinda ishtrok etish imkoniyatini taqdim etadi.

Mazkur Oferta amaldagi tahrirda Internet tarmog'ida www.kapitalbank.uz veb-sayti (keyingi o'rinlarda – «Sayt»)da joylashtirilgan.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

VISA Kapitalbank kartasi –ATB «Kapitalbank» tomonidan chiqarilgan milliy yoki xorijiy valyutadagi Xalqaro to'lov tizimiga tegishli karta.

Pul o'tkazmasi – Kapitalbank mobil ilovasidagi Visa Direct xizmatida pul mablag'larini qabul qiluvchining telefon raqamini kiritish yo'li orqali Visa Aliasdan ro'yxatdan o'tgan jo'natuvchining Visa Kapitalbank kartasidan pul mablag'larini yechish va O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlar banklari tomonidan chiqarilgan Visa kartalari hisobiga tushish amaliyoti.

Visa Direct – bu Kapitalbank mobil ilovasidagi Visa Kapitalbank kartasidan boshqa Visa kartalariga pul mablag'larini o'tkazish xizmati.

Visa Alias – bu Kapitalbank mobil ilovasidagi Visa Kapitalbank kartasidan boshqa Visa kartalariga pul mablag'larini qabul qiluvchi shaxsning faqat telefon raqaminigina kiritish orqali o'tkazish xizmati.

G'olib –berilgan diapazon doirasida tasodifiy raqamni yaratish yoki ro'yxatdan tasodifiy tanlashni ta'minlaydigan "Randomus" onlayn platformasi yoki boshqa shunga o'xshash platformalar yordamida aniqlangan o'yinning birinchi bosqichi ishtirokchisi.

Yutuq – Samsung QLED televizori.

I.OFERTA PREDMETI

1.1. Mazkur Ommaviy Oferta Promo-aksiya doirasida yutuqli o'yinda ishtrok etish shartlari, o'tkazilish joyi va tartibi o'tkazishning tartibi, shartlari, muddati hamda joyini belgilaydi, shuningdek Oferta qabul qilingan taqdirda Tashkilotchi va Ishtrokchilar o'rtasida yuzaga keladigan boshqa huquqiy munosabatlarning mazmunini tartibga soladi.

1.2. Promo-aksiyaning asosiy maqsadi «Visa Kapitalbank» brendini ommalashtirish va rivojlantirishdan iborat.

1.3. Promo-aksiyani o'tkazish muddati: **2024-yil 11- iyundan 2024-yil 10-avgustgacha.**

1.4. **Promo-aksiyaning g'oliblarini aniqlash tartibi:**

Sakkiz nafar G'oliblarni tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Qo'mitasi xodimlari ishtrokida, ma'lum diapazon doirasida tasodifiy raqamni yaratish yoki ro'yxatdan tasodifiy tanlashni ta'minlaydigan "Randomus" onlayn platformasi yoki boshqa shunga o'xshash platformalar yordamida amalga oshiriladi. Matn shaklidagi material Bankning veb-saytida, shuningdek Tashkilotchining Facebook va Instagram sahifalaridagi ijtimoiy tarmog'ida ekran video yozuvi shaklida ham joylashtiriladi.

1.5. Yutuqli o'yin bosqichlarini o'tkazish sanalari:

G'oliblarni tanlash Ofertaning 1.4. bandida ko'rsatilgan tartibda **2024-yil 12-avgust kuni** o'tkaziladi.

1.6. Promo-aksiyada ishtrok etish shartlari:

1.6.1. Promo-aksiyada 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxslar ishtrok etish mumkin. Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlarining (qonunchilikka muvofiq) Promo-aksiyada ishtrok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.

1.6.2. Promo-aksiyada ishtrok etish uchun **ATB «Kapitalbank» tomonidan chiqarilgan «VISA» kartalaridan** Promo-aksiyaning amal qilish muddati davomida 100 000 so'm yoki 10 AQSh dollari va undan yuqori summalarda **«Pul o'tkazmasi»ni** amalga oshirish kifoya bo'ladi.

1.6.3. G'olib 1.6.1.band talablariga muvofiq kelmagan taqdirda, Tashkilotchi **G'olibni** yutuqli o'yindan chiqarish huquqiga ega, bunda Tashkilotchi qo'shimcha **G'olibni** Ofertaning 1.4. bandida ko'rsatilgan tartibda tanlab olsa bo'ladi.

II. AKSEPT VA PROMO-AKSIYADA ISHTROK ETISH TARTIBI

2.1. Mazkur Ofertani qabul qilish ushbu Ofertaning 1.6.2. bandida ko'rsatilgan hatti-harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

2.1.1. Mazkur Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklovlarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilishini anglatadi va yozma shartnomaga teng kuchli hisoblanadi.

2.1.2. Mazkur Ofertaning qabul qilish orqali Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- ushbu Oferta shartlarini to'liq o'qib chiqib, rozi va ularga rioya qilishga majbur ekanligi;
- ishtirokchi uchun Ofertaning mazmuni va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarini tushunarli ekanligi;
- muomala layoqatiga ega va Tashkilotchi bilan shartnoma munosabatlariga kirishish uchun qonuniy huquqqa ega ekanligini tasdiqlaydi.

2.2. Shu bilan birga, ushbu Ofertaning II bo'limida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan barcha Ishtirokchilar Tashkilotchiga shaxsiy ma'lumotlarini, shuningdek, Ishtirokchining har qanday foto va video tasvirlari (shu jumladan, Ishtirokchining roziligi bilan suratga olish yo'li bilan olingan) (qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), kesib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni uchinchi shaxslarga topshirish), shaxsiylashtirish, blokirovka qilish, Shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish, yo'q qilishning avtomatlashtirilgan vositalaridan foydalanish yoki va/yoki ularsiz amalga oshirilgan holda qayta ishlashga roziligini taqdim etadilar. Ishtirokchi Tashkilotchiga ushbu rozilikda ko'rsatilgan qayta ishlash maqsadlari uchun bunday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash zarurati yuzaga kelgan taqdirda, o'zining shaxsiy ma'lumotlari va biometrik shaxsiy ma'lumotlarining har qanday maxsus toifalarini qayta ishlash huquqini (roziligini) beradi.

2.3. 2.3. Tashkilotchi Promo-aksiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotni nashr qilish huquqi hamda Promo-aksiya shartlarini bir tomonlama o'zgartirish huquqini saqlab qoladi.

III. TAQDIRLASH

3.1. Promo-aksiya doirasida Yutuqlarning umumiy miqdori—8 dona. Har bir G'olibga bittadan (1) Yutuq beriladi.

3.2. Yutuq har bir G'olibga G'oliblar aniqlangan kundan boshlab 30 (o'ttiz) calendar kuni davomida yetkazib beriladi (1.5. band).

3.3. Ushbu aksiya bo'yicha yutuq(lar)ni olish munosabati bilan yuzaga keladigan barcha tegishli soliqlar va davlat byudjetiga majburiy to'lovlar Tashkilotchi tomonidan Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi. Tashkilotchi yutuq predmetini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, agar uning xususiyatlari Promo-aksiyaning reklama materiallarida ko'rsatilganidan xususiyatlari yomonroq (qiymati past) bo'lmasa.

3.4. G'oliblar yutuqni almashtirishni talab qilishga yoki yutuqni qo'shimcha to'lash yoki qiymat farqini qaytarish sharti bilan boshqa yuqoriroq yoki pastroq qiymatga ega bo'lgan yutuq bilan almashtirishni talab qilishga haqli emas.

3.5. Tashkilotchi Ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar yoki boshqa shahdagi aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, munozarali yoki yutuqlarni berish bilan bog'liq vaziyatlar bundan mustasno.

3.6. Tashkilotchi istalgan vaqtda ushbu Ofertani qaytarib olish huquqiga ega. Tashkilotchi o'zining www.kapitalbank.uz veb-saytida Ofertani bekor qilish to'g'risidagi bildirishnomani ushbu Ofertani bekor qilish (to'xtatib turish) hodisasidan 12 soat oldin joylashtirish majburiyatini oladi

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Tomonlar ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Tashkilotchi Ommaviy oferta shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday muvaffaqiyatsizlik Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar emas.

4.3. Tashkilotchi yutuqning butun foydalanish davrida yutuq egasining mulki, shuningdek sog'lig'i (hayoti)ga, shuningdek uchinchi shaxslarning mulki, sog'lig'i yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi

4.4. Mazkur promo-aksiyani o'tkazish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida xayrixohlik va o'zaro tushunish asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar kelishuv bo'lmasa, nizo sud tartibida ko'rib chiqiladi

4.5. Tomonlar majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, agar bu bajarilmaganlik Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan, oldindan ko'ra olish va ushbu Ommaviy oferta qabul qilingandan keyin oqilona choralarni ko'rish (fors-major holatlari) imkoni bo'lmagan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tegishli hujjatlar (farmonlar, qarorlar va boshqalar) qabul qilinganishi Tashkilotchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilsa, ozod qilinadilar.

V. AKSIYA ISHTIROKCHILARIGA AKSIYANI O'TKAZISH TARTIBI HAQIDA AXBOROT BERISH SHARTLARI, AKSIYANI O'TKAZISHNI MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH YOKI BEKOR QILISH

5.1. Promo-aksiya ishtirokchilarini uni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida xabardor qilish Tashkilotchining reklamasi joylashtiriladigan joylardagi monitorlarda reklama roliklarini joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda, Internetda, shuningdek, televideniya postlarni joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

5.2. Ushbu promo-aksiya haqida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning rasmiy veb-sayti: www.kapitalbank.uzning "Aktsiyalar" bo'limida joylashtiriladi.

5.3. Promo-aksiya haqida batafsil ma'lumotni 1340 qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilib ham olish mumkin

5.4. Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan, uning shartlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda tegishli ma'lumotlar Bankning www.kapitalbank.uz veb-saytining "Aktsiyalar" bo'limida joylashtiriladi.

VI. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

6.1. Ushbu Ommaviy ofertadan kelib chiqadigan har qanday nizo yozma murojaat asosida tinch yo'l bilan hal qilinishi kerak. Ariza(murojaat)ni ko'rib chiqish muddati va mazmuniga qo'yiladigan talablar esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

6.2. Agar yuzaga kelgan nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda "Kapitalbank" ATB joylashgan yerdagi vakolatli sud organida ko'rib chiqiladi.

VII. OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Oferta Ishtirokchi tomonidan qabul qilingandan so'ng kuchga kiradi va ushbu Ommaviy ofertaning 1.3-bandda ko'rsatilgan promo-aksiya muddati tugagunga qadar yoki Tashkilotchi tomonidan bekor qilingunga qadar amal qiladi.

VIII. ПРОЧИЕ УСЛОВИЯ

8.1. Ushbu Ofertada aniq ko'zda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ish yuritishning umumiy qoidalariga amal qiladilar.


8.2. Agar ushbu Ofertada nazarda tutilgan qoidalardan birortasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq noqonuniy va/yoki haqiqiy emas deb topilsa, Ofertaning bunday qoidalari Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi va ularning o'rni Oferta shartlariga eng mos keladigan yangi qoidalar bilan almashtiriladi. Ommaviy ofertadagi qolgan qoidalari asl holda va to'liq kuchda qoladi.

8.3. Ushbu Oferta rus tilida nashr etilgan.

IX. ATB «KAPITALBANK» MANZILI VA REKVIZITLARI

Yuridik manzili: Toshkent shahri, Yunus-Obod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy.
MFO: 01158; STIR: 207127843. Tel.: 71-200-45-45

Bank Boshqaruv Raisi



Mayevskiy K.L.